

6

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



SOLFEDJIYO O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 - Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi: 60111300 – Musiqa ta'limi

Fan/modul kodi GMAT.105	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
	Solfedjiyo	60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni. Solfedjiyo fanning maqsadi – talabalarda professional musiqiy uquv(slux)ni shakllantirish va uni rivojlantirish, shuningdek, badiiy, ijodiy va musiqiy-pedagogik amaliyotda musiqiy uquvidan faol foydalanishga o'rgatishdir. - o'quvchilarda uyg'unlikda, aniq lad hissini singdirish; ritm hissini rivojlantirish; musiqiy ibora, davr va yaxlit shakltni jonli va mazmunli idrok etish va intonatsiya qilishni o'rgatish; musiqiy stil tuyg'usini tarbiyalash va rivojlantirish; - musiqachi-o'qituvchining kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan darajada musiqiy uquv, musiqiy tafakkur va xotirani rivojlantirish; musiqa o'qituvchisi faoliyati uchun pedagogik mahoratni rivojlantirish; - tizimli yondashuv asosida ladda tafakkur va intonatsiya ko'nikmalarini shakllantirish (bir ovoqlik, garmonik va polifoniya); musiqa tilining alohida elementlarini ham, musiqiy tuzilmalarni - iboralar, jumlarlar, davrlarni - o'quv materiallari bo'yicha va turli musiqiy uslubdagi musiqa adabiyoti parchalarini tinglab aniqlash; - bir ovoqli, ikki ovoqli va uch ovoqli musiqiy diktantni turli tuzilishdagi gomofonik va polifonik davrlar ko'inishida yozib olish ko'nikmalarini shakllantirish. Fanning asosiy vazifalari quyidagilar: - har xil murakkablikdagi turli lad va fakturada ohangni toza, ritmik, ifodali intonatsiya qilish; - musiqiy asarning tugallangan qismini yoki butun vokal yoki cholg'u musiqasini notalar bilan yozib olish; - alohida va musiqa asaridagi musiqa elementlarini tinglash orqali aniqlash; - ijrodagi muayyan uslubdagi musiqa xos bo'lgan lad va ritmik xususiyatlarni farqlash va aniqlash. - talabalarining musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani xis eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, sur'at va uslub tuyg'usini tarbiyalash hamda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdir. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Diatonika. Major va minorni xalq va professional musiqaning eng keng qo'llaniladigan ladlar sifatida qo'llanishi. Turg'un va noturg'un pag'onalar. Noturgun pag'onalarni yechilishi. 7 ta belgigacha major va minor tonalliklari. Major va minor gammalari. Ularning tabiiy, garmonik, melodik turlari. 2-mavzu. Major va minorning asosiy intervallari. Tabiiy va garmonik major va minorning asosiy intervallari.			

10. Azizov O. Sol'fedjiyo (ko'p ovoqli). Toshkent, «Musiq», 2007.	Axborot manbalari www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti. www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. lib.cspi.uz- ChDPU electron kutubxona sayti www.ziynet.uz - Ziynet axborot-ta'lim resurslari portal natlib.uz- O'zbekiston milliy kutubxonasi sayti.
11. Способин И.В. Элементарная теория музыки. Москва, «Кефара», 1996 (Электрон)	
12. Способин И. В. Музыкальная форма. Москва, 1994 (Электрон)	
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “ ” dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sullar: M.S. Muxitdinova- ChDPU “Musiq ta'limi” kafedrasida katta o'qituvchisi. Sh.R.Mahkamova- ChDPU “Musiq ta'limi” kafedrasida mudiri, dotsent.
9.	Taqrizchilar: A.Q.Lutfullayev - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Musiq madaniyat” fakulteti dekani, professor. J.E.Usarov – ChDPU Pedagogika fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor.

	• taqdimotlarni qilish; • individual musiqiy loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va hiyoa qilish uchun amaliy loyihalarni amalga oshirish. • solfedjiolab kuylashi; • musiqiy diktantlar yozish; • sluxga musiqiy elementlarni tinglab aniqlash.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy-uslubiy, amaliy-musiqiy tushuncha va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirish, musiqiy asarni tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan asar va tushunchalar janri, muiqiy y'li haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar: 1 O.Azizov., Solfedjio (ko'p ovozi) "Musiq" T.,2007 2. O. Azizov., Solfedjio., darslik, T., 2014 3. Островский А.Л., Соловьев С.Н., Шокин В.П. Сольфеджио. М., «Музыка», 2013. 4. Способин И.В. Сольфеджио. М., «Музыка», 2014. 5. А.Агажанов. Курс сольфеджио., М., «Музыка», 2003. IX. Qo'shimcha adabiyotlar 1.“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral soni va Internet resurs: www.lex.uz. 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" 04.02.2022 y. 3.Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. (Ma'lumotnoma), Toshkent, "Musiq", 2007. 4.Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami. Toshkent, "O'zbekiston", 2006. 5.Rahimov Q. Garmoniya bo'yicha mashq va masalalar to'plami. «Aloqachi», 2005. 6. Сами Азиз ўғли. Гармония. Т., «Ўзбекистон», 2002. 7.Ройтерштейн М.И. Основы теоретического музыкального. М., «Академа», 2003. 8. Парсегова А.П. Анализ музыкальных произведений. Ташкент "ИЛМ ЗИYO" - 2009 9. Ibrohimov O., Yunusov R. Sol'fedjio darsligi. Toshkent, «Musiq», 2004.

3-mavzu.Oddiy 2/4 va 3/4 o'Ichovli metrlar. 2/4, 3/4 o'Ichovlari va ularni dirijyorlik qilish. Metrning turli hissalaridagi cho'zimlar: yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik nuqtali choraktalik va sakkiztalik. 4-mavzu. Murakkab metrlar. 4/4 o'Ichov. Metrning asosiy hissasi va hissalarining ularda pulsatsiyalanishi.4/4 o'Ichovida dirijyorlik qilish. 5-mavzu. Major va garmonik minorning asosiy uchtovushliklari va ularning aylanmalari. Akkord tushunchasi. Akkord turlari. Uchtovushlik tushunchasi. Uchtovushlik turlari va aylanmalari. Ladning asosiy va yondosh uchtovushliklari. 6-mavzu. Akkord tushunchasi. Akkord turlari. Uchtovushlik tushunchasi. Uchtovushlik turlari va aylanmalari. Ladning asosiy va yondosh uchtovushliklari. 7-mavzu. Dominantseptakkord. Septakkord tushunchasi va uning turlari. Dominantseptakkord, uning tuzilishi, aylanmalari va yechilishi. 8-mavzu. Yetakchiseptakkord. Yetakchi septakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi. Subdominantseptakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi. Kuydagi akkordlar. 9-mavzu. Funksiyalar ichidagi o'tishlar- yechish. Yetakchi septakkordlar va uning aylanmalarini dominantseptakkordlar orqali tonikaga yechilishi. 10-mavzu. Subdominantseptakkord. Subdominantseptakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi. 11-mavzu. Ladning noturg'un pag'onalarining alteratsiyalanishi. Alteratsiya xromatizmnng ko'rinishi sifatida. Major va minor pag'onalarining alteratsiyasi. Alteratsiyalangan pag'onalarining tortilishi boyicha yechilishi. 12-mavzu.Xromatizm. Diatonika va xromatizm. Asosiy va hosila pag'onalar. Ravon va sakrana olingan xromatik tovushlar. Xromatik gammalar. 13-mavzu. Xalq ladlari. Major va minor xalq ladlari. Doriy, frigiy, lidiy va miksolidiy gammalar. Pentatonika. 14-mavzu. Garmonik solfedjio. Garmonik uquv(sluxni) rivojlantirish. 15-mavzu. Birinchi darajali pag'onadosh tonalliklarga og'ishma va modulyatsiya. Birinchi darajali pag'onadosh tonalliklarga og'ishma va modulyatsiya.	III. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Laboratoriya mashg'ulotlarda quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1-mavzu. Diatonika. 7 ta belgigacha major va minor tonalliklari. Major va minor gammalari. Ularning tabiiy, garmonik, melodik turlari. 2-mavzu. Major va minorning asosiy intervallari. 3-mavzu. Oddiy 2 va 3 hissali o'Ichovlar. 4-mavzu. Murakkab metrlar; 4/4 o'Ichovi. 5-mavzu. Tabiiy major va minorlarning asosiy uchtovushliklari. 6-mavzu. Tabiiy, garmonik major va minorlarning orttirilgan va kamaytirilgan intervallari. 7-mavzu. Dominantseptakkprd va uning tonikaga yechilishi. Dominantseptakkordning aylanmalari va ularning tonikaga yechilishi. 8-mavzu. VII pag'ona septakkordi va uning tonikaga yechilishi. VII aylanmalari yechilishi bilan.
--	---

9-mavzu. Funksiyalar ichidagi o'tish yechilish bilan. 10-mavzu. II pag'ona septakkordi va uning tonikaga yechilishi. II aylanmalari yechilishi bilan. 11-mavzu. Ladning noturg'un pag'onalar alteratsiyasi. Xromatik intervallar. 12-mavzu. Xromatik gamma. 13-mavzu. Xalq ladlari. 14-mavzu. Garmonik solfedjio – akkordlar ketma-ketliklari ustida ishlash. 15-mavzu. Birinchi darajali pag'onadosh tonalliklarga og'ishma va modulyatsiya. Birinchi darajali pag'onadosh tonalliklarga og'ishma va modulyatsiya. IV. Mustaqqil ta'lim va mustaqil ishlar. Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyiha uchun maqsad va vazifalarni, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Bir ovozli mashqlar (diatonika va xromatizm elementlari bilan) kuylash. 2. Melodik figuratsiya yordamida ikki ovozli garmonik kompozitsiya kuylash. 3. Ikki ovozli mashq yoki kichik asar polifonik uslubda kuylash. 4. Uch qismli garmonik akkordlar va akkordlar ketma-ketliklari kuylash. 5. Oddiy polifonik tipdagi uch ovozlik mashq. Bir ovozlik misollarning transpozitsiyasi qilish. 6. Garmonik solfedjio: major va minor diatonik tizimining akkordlari va akkordlar ketma-ketliklari. 7. Vokal adabiyotidan namunalarni matn va akkompiment bilan kuylash. 8. Vokal adabiyotidan namunalari akkompiment bilan ijro etish (fortepiano). 9. Berilgan motivlarga melodik modulyatsiya qiluvchi ketma-ketliklarni kuylash. 10. Og'ishmalar, modulyatsiyalar va modulyatsiya qiluvchi ketma-ketliklarni o'z ichiga olgan ohanglarni solfedjio qilib kuylash va yozib olish. 11. Ikki va uch ovozli misollarda bir ovozli erkin solfejlab kuylash (istalgan ovozni ijro qilish). 12. Fortepiano jo'rligisiz matnli bir ovozli misollar va fortepiano jo'rligidagi oddiy misollar. 13. Xromatik gammalarni to'liq yoki qismlarga bo'lib kuylash. 14. Turli tonalliklarda popevkalarni kuylash. 15. Xromatik tovushlar bilan ravon va sakrama olingan ohanglarni solfedjio lash va yozib olish; 16. Xromatik yo'nalishda harakatlanadigan kuylar ijro etish.	
---	--

17. Tinglab tahlil qilish: kuy ladi, interval, akkord, metr va ritmni musiqiy uquv yordamida aniqlash; tsezuralar va kadenstar; davrdagi jumla va iboralarni ko'rsatish. 18. Vokal adabiyotidan matnli namunalarni kuylash. 19. Fortepianoda mashqlarni sekunda, tertsiya va kvarta intervaliga yuqoriga va pastga o'tkazib kuylash. 20. Akkordlar ketma-ketliklari. 21. Akkordlar engarmonik tengligi. 22. Major va minorda xromatik gammalari 23. Ostrovskiy A.L., Solovoyov S.N., Shokin V.P. "Sol'fedjio" (bir ovozlik) t'plamidan mashqlar kuylash. 24. Sposobin I.V. "Sol'fedjio" (ikkki ovozlik) to'plamdan mashqlar kuylash. 25. Laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik k'rish. 26. Fanning auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari mavzularni o'rganish. 27. Yakka va kichik guruhlarda musiqiy amaliy loyihalar tayyorlash. 28. Yoddan musiqiy, ritmik, garmonik diktantlar yozish. 29. Solfedjio fani bo'yicha ijodiy ishlar bajarish: o'quvchilar uchun testlar, krossvord, skanvordlar tuzish. 30. Ko'p ovozli kompozitsiya yaratish.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - musiqa o'qituvchi kasbiy faoliyatdagi faoliyatini mustaqil amalga oshirish uchun zarur bo'lgan solfejio kursining nazariy va amaliy asoslarini; - musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan darajada musiqiy uquv, musiqiy tafakkur va xotirani rivojlantirish usullari; musiqa o'qituvchisi ishida kerak bo'ladigan pedagogik mahoratni rivojlantirishni; - maktab o'quvchilarini vokal ansambllari (duetlar, triolar va boshqalar) va xor guruhlarini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan musiqiy va sof intonatsiyani aniqlash usullarini <i>biladi</i>. - bir ovozli, ikki ovozli, uch ovozli va hokazo musiqiy misollarni, shu jumladan, ansamblda, oldindan tayyorgarlikdan so'ng (matnli ichki slux bilan o'qish) va hokazolarni ko'zdan kechirishdan so'ng erkin solfedjio lab kuylash; - musiqiy diktantlarni: bir ovozli, ikki ovozli, uch ovozli, (garmonik, polifonik), ya'ni "akademik" shakldagi musiqiy diktantlarni yozib olish; shuningdek ovozdin (jumladan, musiqa folkloridan) kabi bilimlarni amaliyotda ijodiy <i>qo'llay oladi</i>. - tinglab tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi (sluxga musiqa elementlarini: ohang, garmonik ketma-ketliklarni tahlil qilish, imitatsiya va kontrastli ko'povozlikning har xil turlari, shaklda tugallangan kichik asarlar qniqlash) <i>ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi</i>lar, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etadilar.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruza, amaliy topshiriqlar bajarish; • interfaol keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash;